


Taymaslar

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:  
BD-60210800-1.15  
2022 "26" 08



**AMALIY SAN'AT TURLARI**

**FAN DASTURI**

**Bilim sohasi:** 100000 - Gumanitar  
**Ta'lim sohasi:** 110000 - Pedagogika  
150000 - San`at  
**Ta'lim yo`nalishi:** 5151200 – Amaliy san`at (Xalq amaliy bezak  
san`ati va restavratsiya)  
60210800 – Amaliy san`at (Badiiy kulolchilik)

60210800 – Amaliy san`at (Badiiy kulolchilik)			
Fan/modul kodi RaKA1106	O`quv yili 2022-2023	Semestrlar 1-2-3	EST8 - Kreditlar 8
Fan/modul turi Majburiy	Ta`lim tili O`zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 1
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg`ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)
	Amaliy san`at turlari	120	120
			240
2	<p style="text-align: center;"><b>I. KIRISH</b></p> <p><b>1.1. Fanni o`qitish maqsadi va vazifalari.</b></p> <p>«Amaliy san`at turlari» fanini tashkil qilish, uning mazmuni, naqqoshlikda turli kompozitsiyalar tuzish usullari, ularga qo`yiladigan talablar bilan tanishtirish;</p> <p>«Amaliy san`at turlari» fanidan ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar, ularni ishga tayyorlashni o`rgatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-talabalarga oddiydan murakabga qarab turli naqsh kompozitsiyalarini mukammal tuzishni o`rgatish;</li> <li>-talabalarga naqqoshlik, ganch o`ymakorligi, miniatyura, ashyoshunoslik va boshqa fanlardan olgan bilim malakalarini mustahkamlash, turli shakldagi buyumlarga mos naqsh kompozitsiyasi tuzishni o`rgatish, shu bilan birga ranglarni to`g`ri tanlash, turli materiallarga ishlov berishga e`tibor qaratadi.</li> <li>-hajmli buyumlarga naqsh kompozitsiyasi tuzish usullarini o`rgatish;</li> <li>-interer va eksterer bezagi uchun turli naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o`rgatish;</li> <li>-kompozitsiya darslari asosida Sharq amaliy san`atining go`zalligi, falsafiy, ruhiy va tarbiyaviy qirralari bilan tanishtirish.</li> </ul> <p><b>1.2. Fanni o`zlashtirishga qo`yiladigan umumiy talablar.</b></p> <p>Bakalavrlar «Amaliy san`at turlari» fani bo`yicha to`liq kursni tugatgandan so`ng quyidagilarga ega bo`lishlari lozim: «Amaliy san`at turlari» mashg`ulotlarini o`tishda naqsh kompozitsiyasi tuzish qoidalari, kompozitsiya asoslari va uning turlari, simmetriya va asimmetriya, rapport, ritm, siluet, nisbat, kolorit, kontrast, garmoniya, kompozitsiya, rang,</p>		

mahalliy materiallar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

-Amaliy san'at turlari fani darslarini rejalashtirish: Ish qurollari, moslamalar, ularni ishga tayyorlashni bilishi, mahalliy materiallardan foydalanish, talablarga naqqoshlik, kompozitsiya mashg'ulotlarini tashkil etishda amaliy san'at asarlarini ma'muriy turar joy binolari va tarixiy obidalarimiz badiiy bezagini tahlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va yangi boshlovchi talabalar bilan individual darslar olib borish, talabalar ijodiy ishlarini baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lish:

- Amaliy san'at turlari fanining tarixi va nazariyasi, kompozitsiyasi tuzishning nazariyasi va bosqichlari, kompozitsiyasi tuzish qonuniyatlari va mahalliy materiallar xususiyatlari va ulardan foydalanish, bo'yoqlar tayyorlash va ular bilan ishlash texnologiyasi, oddiy naqsh elementlarini yoddan bilishi va ular yordamida turli naqsh kompozitsiyalari tuza olish, girix va guli girix naqsh kompozitsiyalarini tuza olish, turli hajmli buyumlarni naqshlay olish, xalq ustalarimiz ijodidan nusxa ko'chira olish, interer va ekstererni bezash uchun naqsh kompozitsiyalarini mustaqil chiza olish, naqsh kompozitsiyalarini chizishda kompyuter grafik dasturlaridan foydalanish, ijodiy jarayonni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;

3

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.**

Bu fan o'quv rejada belgilangan «Badiiy bezash san'ati», «Ganch o'ymakorligi», «Yog'och o'ymakorligi», «Miniatyura», «Pedagogika», «Psixologiya», «Perspektiva», «Chizma geometriya», «Chizmatasvir», «Rangtasvir» va boshqa fanlar bilan bevosita bog'liq.

#### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.**

«Amaliy san'at turlari» fani naqqoshlik, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi, matoga gul bosish va boshqa turlari xalqimizning milliy ma'naviyati sifatida bunyodkorlik, ayniqsa milliy me'morchilikning ajralmas qismidir.

Tarixiy va boy an'analarga suyangan holda xalq amaliy san'atini rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda, yangi zamonaviy binolarni milliy ruhda bunyod etishda, mashhur xalq ustalari ijodlarini davom ettirish, izlanish va hayotga tadbiiq etish bilan badiiy asarlarni ishlab chiqarishni tashkil etadi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo'g'inidir.

#### **Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.**

«Amaliy san'at turlari» fani darslarida fanga oid turli adabiyotlar,



ko'rgazmali qurollar, zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish.  
Yangi axborot texnologiyalarini qo'llash.  
Darslarni yanada samarali tashkil etilishi uchun quyidagilarga amal qilish  
maqsadga muvofiqdir:

- darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish;
- ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qo'llash;
- darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari, usta-shogird an'alaridan keng foydalanish;

- talabalar ishlaridan ko'rgazmalar tashkil qilish;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- talabalarni o'z kasbiga qiziqtirish yo'llaridan umumli foydalanish;
- talabalarning individual xususiyatlarini, universitetning moddiy bazasini hisobga olish;

- Naqqoshlikda ishlatiladigan atamalarning lug'aviy ma'nosini atroflicha o'rganish va boshqalar.

## II. ASOSIY QISM.

### 2.1. Modul bo'yicha o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

4

#### Naqqoshlik san'ati

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'at turlari boy va rang-barang bo'lib, madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadigan naqqoshlik san'atida an'alarining davomiyligi ilk o'rish mumkin.

O'zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. O'zbek xalq ustalari qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar shartl itasvir (ramziy) bo'lishiga qaramasdan, o'ziga xos qonuniyatga egadir.

Ijodkorlik insoniyat ongining mo'jizasidir. U kishilar ruhiyatiga ta'sir etib, ma'naviy olamini boyitadi. Usta naqqosh biron bir naqsh kompozitsiyasini yaratar ekan, albatta tabiyatdan ilhom oladi va undagi mavjud go'zallikni yanada jozibaliroq aks ettirishga harakat qiladi.

Har qanday naqsh oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, oddiy elementlarning ma'lum g'oya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o'zaro uyg'unligi va mutanosibligi bilan hosil bo'ladi. Oddiy elementlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi va boshqa shu kabi xalq amaliy san'ati turlarida o'ziga xos naqsh namunalari yaratish mumkin.

*Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Naqqoshlik san'atining tarixi, maktablari, ijod qilgan ustolarni hayoti haqida.
- Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar.
- Naqqoshlik san'atiga oid naqsh elementlarini qalamda chizish, bo'yash, pardozlash.
- Naqsh elementlaridan foydalanib oddiy islmiy naqsh kompozitsiyasini chizish.
- Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va unga kerakli pardozni tanlab pardoz berish.
- Ruta naqsh kompozitsiyasi tuzish.
- To'rtburchak shakl ichida islmiy naqsh kompozitsiyasi tuzish
- Olti yulduzli girix naqshini chizish.
- Namoyon naqsh kompozitsiyasi tuzish.
- Murakkab (islmiy va geometrik) naqshlarni uyg'unlashtirib namoyon kompozitsiyasi tuzish.
- Turli buyumlarga mos naqsh kompozitsiyasi tuzish.

**Ganch o'ymakorligi san'ati**

Ganch o'ymakorligi O'rta Osiyodagi binolar me'morchiligi bezaklarida qadimdan qo'llanilib, rivojlanib kelgan. Me'morchilikning umumiy uslubiga ko'ra o'ymakorlikning ishlatiladigan joyiga qarab naqsh turlari, ganch o'yish texnikasi va shakl masshtabining xarakteri o'zgarib boradi.

Ganch o'ymakorligini bajarishda, ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar, turli ganch qorishmasini tayyorlash texnologiyasini, pardoz turlari va o'ymakorlik uslublarini bilish bilan birga, naqsh kompozitsiyasini chizish muhim ahamiyatga ega. Naqsh chizishni yaxshi o'zlashtirishda birinchi navbatda ganch o'ymakorligi uchun qo'llaniladigan naqsh elementlarini o'rganish, ularni kerakli joyda qo'llashni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Ganch o'ymakorligi san'atining kelib chiqish tarixi, maktablari, ijod qilgan ustolarni hayoti haqida.
- Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar.
- Ganch o'ymakorligi san'atida ishlatiladigan naqsh elementlarni chizish.
- Ganch o'ymakorligi san'atiga qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish.
- Ganch o'ymakorligida qo'llaniladigan naqsh axta (ulgi) sini tayyorlash.
- Ruta naqsh kompozitsiyasini chizish.
- Ganch qorishma turlarini tayyorlash.
- Ganch taxta quyish
- Naqsh nusxasini ganch taxtaga tushirish.



- Naqsh zaminini o'yish.
- Naqsh gullariga pardo berish.
- Ganch taxta quyish va naqsh nusxasini ganchtaxtaga tushirib o'yish.

#### Mis kandakorligi san'ati

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. O'rta Osiyo shaharlarida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyingi o'rinda turadi. Mahalliy san'at asarlari qo'shni mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Qadimdan kundalik turmushda kerakli buyumlarni yasash urf bo'lib qolgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis, latun va boshqa metallar qotishmalaridan har xil buyumlar yasaganlar. Bu san'at turini yoshlar o'rganishlari uchun mis kandakorligi san'atining tarixi, maktablari, ananalari va ustalar ijodlari bilan chuqurroq tanishishlari kerak. Shu bilan birga kandakorlikda ishlatiladigan naqsh elementlarini chizishni, buyumlarga mos keladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish yo'llarini o'zlashtirishlari maqsadga muvofiq.

#### *Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Mis kandakorligi san'atining tarixi, maktablari va ustalari jodidan
- Kandakorlik san'atida ishlatiladigan naqsh elementlarini chizish.
- "Zeb", "zebish" va "Zanjira" naqshlarini qalamda chizishni mashq qilish.
- "Bofta", "Bodom", "Qo'sh bodom" naqshlarini qalamda chizishni mashq qilish.
- "Yak-sar", "Du-sar", "Shashbarg" naqshlarini qalamda chizish.
- Yo'lichidaisliminaqshinichizish.
- Mis buyum uchun girih va islimi naqshlardan tashkil topgan kompozitsiyani tuzish.
- Buyum atrofi uchun yo'l ichida naqsh kompozitsiyasini chizish.
- Mis buyum uchun girih naqsh ini tuzish.
- Buyumlarga islimiy naqshni chizish va o'yish.

#### Yog'och o'ymakorligi san'ati

Me'morchilik yodgorliklarini milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashda, shu jumladan, eshiklar, darvoza, ustun va bololarni yog'och o'ymakorligida bezak berib, o'z san'atlarini namoyish etganlar. Bu esa tabiiyki yog'och o'ymakorligini tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib bergan. Vaqt o'tishi bilan monumental me'morchilikda yog'och o'ymakorligi ana'naviy san'at turiga aylanib bordi. Yog'ochdan yasalgan buyumlarini bezashda, kichik hajmdagi uy-ro'zg'or buyumlari bo'ladimi, yoki monumental yog'och o'ymakorligi bo'lishidan qat'iy nazar, buyumga mos naqsh kompozitsiyasi

asosiy ahamiyat kasb etgan. Hozirda yoshlarga yog'och o'ymakorlikni sir asrorlarini o'rgatish bilan birga yog'och o'ymakorligiga mos kompozitsiya tuzish yo'llarini ko'rsatishimiz kerak.

Yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida foydalaniladigan asbob va uskunalar, xavfsizlik qoidalari, yog'och xom-ashyolari, ularning turlari, qattiq-yumshoqligi, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari, yog'och zahiralari bilish bilan birga kompozitsiya tuzish, yog'och o'ymakorligida qo'llaniladigan pardoz turlarini bilishlari talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

#### *Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Yog'och o'ymakorligi san'ati tarixi va maktablari.
- O'ymakorlikda ishlatiladigan yog'och turlari, asbob va uskunalar, xavfsizlik qoidasi.
- Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan naqsh elementlari: barglarni, gullarni, bog'lovchi elementlar, tanob va shkuftalarni qalamda chizish.
- Yog'och o'ymakorligiga xos yo'l ichida oddiy zanjira naqsh namunalarini chizish va o'yish.
- Yog'och dan yasalgan qalamdon uchun naqsh kompozitsiyasini chizish.
- Yog'och dan yasalgan quticha uchun naqsh kompozitsiyasini chizish.
- Yog'och o'ymakorligi uchun ishlatiladigan turli naqsh kompozitsiyalarini chizish.
- Yog'och o'ymakorligiga mos murakkab naqsh kompozitsiyalarini tuzish.

#### **Kulolchilik san'ati**

Kulolchilik san'ati bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo'lsada, uning ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibli, saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uygunligi O'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan uy ro'zg'or buyumlarini tayyorlaydigan soha bo'lib, u bizga qadar qator amaliy san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga uzoq tarixga ega bo'lgan san'at turi hisoblanadi. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan bilganlar.

Hozirgi kunda bu san'at turi qadimgi ananalarga tayangan holda yanada rivojlanmoqda. Yoshlarimizga kulolchilikni sir asrorlarini o'rgatishda, ustalar ijodini o'rganish, ishlatiladigan xom-ashyolar va asbob-uskunalar bilan tanishish, loy tayyorlash texnologiyasini o'rganish, kulolchilikka mos naqsh kompozitsiyasi chizishni o'rganish, turli buyumlar va o'yinchoqlar yasash bosqichlarini amalda bajarish talabga muvofiqdir.



*Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Badiiy kulolchilik san'atining tarixi
- Badiiy kulolchilikka oid adabiyotlarni o'rganish.
- O'zbekistondagi kulol ustalari jodini o'rganish.
- Kulolchilikda ishlatiladigan xom-ashyolar va asbob-uskunalar
- Kulolchilikda loy tayyorlash texnologiyasini o'rganish va tayyorlash
- Kulolchilik buyumlarni yasash bosqichlari.
- Kulolchilikda ishlatiladigan bo'yoqlarning o'ziga xos xususiyatlari
- Sopol laganni badiiy bezash uchun izlanish eskizini bajarish.
- Kulolchilikda yasalgan laganni badiiy bezash uchun naqsh kompozitsiyasini chizish.
- Milliy o'yinchoqlardan nusxa ko'chirish.
- Turli buyumlar yasash.

**Zardo'zlik san'ati**

O'zbek xalq amaliy san'ati qadim zamonlardan beri maqtovlarga sazovor bo'lib kelgan va madaniyati rivojlanayotgan tarixiy sharoitda unga alohida ahamiyat berilgan. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Zardo'zlik-hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar(tilla), do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi.

Zardo'zlik Sharq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda, ayniqsa Buxoroda keng tarqalgan. Zardo'zi usulida tayyorlangan kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi. Unda asosan turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblanadi. Zardo'zlikda ham o'ziga xos gullar, naqshlar va kompozitsiyalar tuzish muhim rol o'ynaydi.

*Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Zardo'zlik san'ati tarixi.
- Zardo'zlik uchun zaruriy xom-ashyo va asbob-uskunalar bilan tanishish.
- Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh elementlarini chizish.
- Zardo'zlikda ishlatiladigan oddiy naqsh kompozitsiyasini tuzish.
- Kompozitsiyani shaffof qog'ozga o'tkazish
- Naqsh kompozitsiyasini maxsus qoralama orqali kartonga ko'chirish
- Zardo'zlikda ishlatiladigan gulli naqsh va kompozitsion shakllarni chizish.
- Zardo'zlik san'atida ishlatiladigan naqsh kompozitsiyasini amalda bajarish (Namoyon naqsh)
- Zardo'zlikda do'ppi uchun naqsh kompozitsiyasini tuzish.



- Zardo`zlikda turli buyumlar uchun naqsh kompozitsiyasini tuzish.

### **Kashtachilik san`ati**

O`zbek milliy kashtachiligi (kashtado`zlik) amaliy san`atning eng qadimiy turlaridan bo`lib, u xalqning o`z turmushining go`zal qilish istag natijasida yuzaga kelgan. Bu san`atda har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaydigan naqshlari bo`ladi. Chunonchi o`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari elementlari ko`p tasvirlanadi.

O`rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo`lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo`lgan. Bezak buyumlarining turijudako`p masalan, so`zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, gulko`rpa, dorpech, bug`joma, parda, belbog`, takyapo`sh (yostiqlik ustiga yopiladigan), do`ppi, ko`ylak, dastro`mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi kavush va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. Kashta tikishda ishlatiladigan naqsh elementlarini chizishni, tikiladigan buyumlar uchun naqsh kompozitsiyasi tuzish yo`llarini puxta o`rganish kerak.

### *Amaliy mashg`ulot mavzulari:*

- Kashtachilik san`ati tarixi.
- Kashtachilik san`ati maktablari, ustalari va ularning ijodiy faoliyati
- Kashta tikish asboblari, xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalari.
- Kashtachilikda ishlatiladigan naqsh elementlarini qalamda chizish. (A3)
- Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish. (A3)
- Kashtachilikda tikiladigan so`zana uchun naqsh kompozitsiyasi tuzish.
- Kashtachilik san`atiga doir kompozitsiyasi bajarish va tikish (Panno misolida)
- Turli buyum va shakllarga mos naqsh namunalarini chizib tikishni mashq qilish.

### **Zargarlik san`ati**

O`zbekistonda zargarlik san`ati an`analari qadimdan mavjud. Usta zargarlar asrlar mobaynida yaratgan noyob zargarlik buyumlari so`zsiz madaniyatimizning oltin xazinasini tashkil etadi. XX asrning ikkinchi yarmida zargarlik hunari sanoat ishlab chiqarish tizimiga o`tdi. Bu esa zargarlik buyumlarining bir xil qolipga va andozaga tushishiga, bezaklarning an`anaviy shakllari yo`qolib, iste`moldan chiqarilishiga, ba`zi ishlash usullaridan voz kechishga olib keldi. Xalq ustalari qimmatbaho ma`danlar bilan ishlash imkoniyatlaridan mahrum bo`lib, uzoq vaqt melxior bilan ishlashlariga to`g`ri keldi. Mustaqilligimiz sharofati bilan bu san`at turiga ham e`tibor qaratilib qaytadan rivojlandi. Hozirgi kunga kelib ustalar ananaviy kandakorlik maktablari uslubida ijod qilib, o`z shogirdlarini o`rgatib kelmoqdalar. Bu san`at turida ham naqsh chizish, turli kompozitsiyalar yaratish asosiy o`rinda turadi.

*Amaliy mashg'ulot mavzulari:*

- Zargarlik san'atining tarixi, maktablari va ustalar ijodi.
- Zargarlik san'atida ishlatiladigan naqsh elementlarni qalamda chizish.
- Zargarlik buyumlari uchun naqsh kompozitsiyasini bajarish (Tillaqosh, daspona misolida)
- Zargarlik buyumlari uchun turli naqsh kompozitsiyalari tuzish.
- Buyumlarga mos kompozitsiyalar tuzish.
- Zebugardon buyumiga mos kompozitsiya tuzish.

**Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi)**

6

Fan bo'yicha kurs ishi o'quv dasturda rejalashtirilmagan

7

**III. Mustaqil ta'limni tashkil qilish:**

Amaliy san'at turlari fani bo'yicha berilgan mavzularini o'rganish. Berilgan topshiriqlar, tarqatma materiallar bo'yicha o'zlashtirish. Amaliy ishlar topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Amaliy san'at turlari fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqod ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish. Har bir amaliy san'at turi bo'yicha amaliy ish bajarish.

**Mustaqil ish uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

- Naqqoshlik san'atida ishlatiladigan elementlarni tasvirlash.
- Sopoldan yasalgan lagan uchun naqsh kompozitsiyasi eskizini bajarish. (A3) qog'ozda.
- Naqsh elementlari (detallari) ustida ishlash.
- Ruta naqsh kompozitsiyasini bajarish.
- Namoyon naqsh kompozitsiyasini bajarish.
- Ganch uymakorligi san'atida ishlatiladigan elementlarni chizishni mashq qilish.
- Ganch uymakorligi san'atida ishlatiladigan elementlarni ganch yuzasiga o'yishni mashq qilish.
- Ganch o'ymakorligi san'atiga mos, devor uchun namoyon naqsh kompozitsiyasi eskizini bajarish. (A2) qog'ozda



- Naqsh elementlari (detallari) ustida ishlash va ishni tugatish.
- Gullar, to'rt, besh, olti yaproqli gullar, turt, besh, olti bargli oygul, uch bargli gul, paxta gul, pista gul, kupbargli gullarni qalamda chizish.
- Marg'ula, qo'sh marg'ula, kurtakli marg'ula naqsh elementlarini chizishni mashq qilish.
- Tanob va novda, qo'shtanob, novda, shkufta, bozlam va sirtmoklarni chizishni mashq qilish.
- Geometrik zanjira turlarini chizishni mashq qilish.
- Naqsh kompozitsiya uchun eskiz bajarish.
- Oddiy naqsh kompozitsiyasini tuzish.
- Kompozitsiyani axtasi(ulgisi)ni tayyorlash.
- Mis kandakorligi san`atiga doir lagan uchun naqsh kompozitsiyasi eskizini bajarish.(A3)qog'ozda.
- Yog'och o`ymakorligida quticha uchun naqsh kompozitsiyasini bajarish.
- Zargarlik san`atiga doir naqsh kompozitsiyasini bajarish(talaba tanlovi asosida)
- Zardo`zlik san`atiga xos bo`lgan naqsh kompozitsiyasini tasvirlash (panno misolida)
- A3 qog'ozda naqsh kompozitsiyasi eskizini bajarish.
- Kashtachilik san`atida ishlatiladigan naqsh elementlarni tasvirlash. (so`zana misolida)
- A3 qog'ozda kashtado`zlik san`atiga doir panno uchun naqsh kompozitsiyasi eskizini bajarish.
- Naqsh elementlari (detallari) ustida ishlash.
- Adras matosida kompozitsiya tasvirlash (panno misolida)
- A3 qog'ozda kompozitsiyasi eskizini bajarish.

8

**IV. Ta`lim texnologiyalari va metodlari:**

- o Guruhlarda ishlash;
- o Individual loyihalar;
- o Jamoa bo`lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
- o Amaliy mashg`ulotlarni bajarish;
- o Taqdimotlarni qilish;

9

**V. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va amaliy vazifalarni to`la o`zlashtirishi, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olishi, o`rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, nazoratlar bo`yicha amaliy ishlarni ko`rikka namoyon etishi lozim.

**Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.  
Asosiy adabiyotlar**

1. S.S. Bulatov., O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T. Mehnat, 1991.
2. S.S. Bulatov., G'. Yo'ldoshev. Ashyoga badliy ishlov berish. T-2007.
3. S.K. Qodirov. „Materialshunoslik“. Yog'ochga ishlov berish bo'yicha. T-2012.
4. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va Yog'och o'ymakorligiga oid atamalar izohli lug'ati. T. Mehnat, 1991.
5. A.M. Kadirov. Amaliy san'at tarixi (Buxoro me'morchiligida bezak san'ati VIII-XXI asrlar). B., Durdona nashriyoti 2021.
6. Sh. Sh. Bakaev. Amaliy bezak san'ati. B., Durdona nashriyoti 2021.
7. D.I. Mamurova, N. Avliyoqulova. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. Durdona nashriyoti 2021.
8. V.R. Tuxsanova. Amaliy san'at turlari. B., Durdona nashriyoti 2020.

**Qo'shimcha adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral', PF-4947-son Farmoni.
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis qo'shma majlisidagi nutqi /SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016.-56 b.
3. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari. «Iqtisod-moliya», Toshkent, 2008.
4. B. Xolmatov. Naqqoshlik. O'quv qo'llanma. Toshkent-2007.
5. Ahmedov M.B. Yo g'och o'ymakorligi. Darslik. Toshkent-2006
6. S.S. Bulatov, A. Muxtorov. Ganch o'ymakorligi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2006.
7. Mirzaahmedov M.X. Ergashev S. Yog'och o'ymakorligi. T. O'qituvchi, 1995.
8. D. Tashxodjaeva. Materialshunoslik. o'quv qo'llanma. Toshkent 2017y.
9. Abdullaev. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent: Fan. 2007 y. 86 b.
10. D. Tashxodjaeva. Ashyolar texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2018 y 11. N.V. Babushkina. Zolotoshityo. Moskva-2003

**Elektron ta'lim resurslari:**

[www.vgik.info](http://www.vgik.info)  
[www.pencil.m.ru](http://www.pencil.m.ru)  
[www.msus.org](http://www.msus.org)  
[www.artacademu.spd.ru](http://www.artacademu.spd.ru)  
[Ziyonet.uz](http://Ziyonet.uz)  
[uzmrtdi.uz](http://uzmrtdi.uz)  
[Natbil.uz](http://Natbil.uz)



11	<p>Fan dasturi Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik kengashining 2022 yil _____ avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzildi.</p> <p>Fan dasturi "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrasida yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.</p> <p>Kafedra yig'ilishining 2022 yil <u>26</u> avgustdagi № 1-sonli bayonnomasi</p>
12	<p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>G.A. Xakimova.</b> BuxDU, "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrasida katta o'qituvchisi. _____ <i>Xakimova</i></p> <p><b>V.R. Tuxsanova.</b> BuxDU, "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrasida katta o'qituvchisi. _____ <i>Tuxsanova</i></p>
13	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>N.Dj. Yadgarov.</b> "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrasida professori, p.f.n.</p> <p>_____</p> <p><b>D.Q. Mamatov.</b> "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrasida mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent. _____ <i>Mamatov</i></p>